

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DIALOGIK MUNOSABATLAR MADANIYATINING DARAJALARI

Nafisa Husanova Nurali qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14895846>

Annotatsiya. Mazkur maqola, o‘quvchilar orasida dialogik munosabatlar madaniyatining rivojlanish darajalarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Dialogik munosabatlar madaniyati o‘quvchilar orasida samarali muloqot, tinglash va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu madaniyatning asosiy elementlari o‘quvchilarning bir-birini hurmat qilish, fikr almashish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni to‘g‘ri tushunish va muammolarni birligda hal qilishga qaratilgan faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Maqolada o‘quvchilar orasidagi muloqotni yanada samarali qilish uchun o‘qituvchilar va pedagoglar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan faoliyatlar, o‘qitish metodlari va amaliy yondashuvlar ham taqdim etiladi. O‘quvchilarda dialogik madaniyatni rivojlantirish uchun sinfda faol muloqotlarni tashkil etish, individual va guruh ishlari orqali o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash zarurati urg‘ulanadi. Ushbu maqola o‘quvchilarda kommunikatsiya va muloqot madaniyatini shakllantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi hamda pedagoglarga zamonaviy ta’limda bunday madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha aniq tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, dialog, rivojlanish, pedagog.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan dialogik munosabatlar madaniyatining dinamik xarakterga ega ekanligini e’tirof etgan holda o‘quvchilar dialogik munosabatlari darajasi hamda rivojlanish manbalarini ajratish uning shakllanishga imkon beradigan model qurilishini tahlil qilishga asos yaratadi. Bu esa dialogik munosabatlar madaniyatining shakllanganlik darajasini tashxislash, pedagogik prognozlash va pedagogik faoliyat maqsadlarini aniqlashga ko‘maklashadi.

Z. Kolmatovaning fikricha, jarayonni imkon qadar ko‘proq tahlil qilish, turli holatlarning o‘zaro aloqador jihatlari va qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Izchillik uning ichki tarkibini oydinlashtirib, jadallahuvni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogik munosabatlar madaniyatini shakllantirish bosqichlarini aniqlash alohida ahamiyatga egaligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik.

Fikriy-qadriyatli hamda hissiy-affektiv komponentlarning o‘zaro birligi jarayonli qismning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllanadigan dialogik munosabatlar madaniyatining uch darajasini aniqlash imkonini beradi. Ular:

Dialogik munosabatlar madaniyatining quyi darajasi - hissiy daraja bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy-affektiv rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar o‘zlarining his-tuyg‘ularini yashira olmaydilar, ularda xulq-atvorning ixtiyorsiz qo‘zg‘alishi kuzatiladi. Bu kabi o‘quvchilarda fikrlarni bayon qilish, xulq-atvordagi anglashilganlik vaziyatli xarakter kasb etadi. Ularning hukmlari, ilgari surgan fikrlar u qadar qat’iy va barqaror bo‘lmaydi. O‘quvchilarning faoliyatlarida qadriyatlarni anglamaslik va ularga amal qilmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday o‘quvchilarning kommunikativ texnikasida teskari aloqa bo‘sh darajada shakllangan bo‘ladi. Muloqot esa aksariyat hollarda hissiy xarakter kasb etadi. Mazkur darajada muloqotning mazmuni bir xil bo‘lib, uning maqsadlari o‘zaro farqlanmaydi, muloqot vositalari esa takomillashmagan holda qolib ketadi. Ushbu vaziyatlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar dalillarni shunchaki to‘plash bilan cheklanib qoladilar. Bunday o‘quvchilar uchun insoniy munosabatlar doirasini aniqlash juda qiyin kechadi. Ularda muammolarni anglash va tushunish past darajada shakllangan. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatlarini va dunyoqarashlari uyg‘unlashuviga to‘sinqinlik qiladi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlari past darajada shakllanganligining sabablaridan biri - o‘quv-tarbiya jarayonining ular shaxsiyatini shakllantirish bilan bog‘liq jihatlariga yetarlicha e’tibor berilmaganlidigidir. Ularda ijtimoiy foydali faoliyat tajribasi mohiyatini anglash ko‘nikmasi yetarlicha shakllanmagan.

Dialogik munosabatlar madaniyati shakllanganligining o‘rta darajasi - jarayonli darajada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘proq darajada his-tuyg‘ularni kuzatish jarayoni boshlanadi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilarning o‘z kechinmalarini boshqara olishlari nihoyatda zarur hisoblanadi. Shu asnoda ular o‘quv faoliyati bilan bog‘liq kundalik majburiyatlarini bajarishga kirishadilar. Natijada ularda hissiy holatlarning barqarorligi ortadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik munosabatlari jarayonida o‘zaro manfaatdorlik hamda suhbatdoshiga hamdardlik his-tuyg‘ulari vujudga keladi.

Bunday o‘quvchilarda o‘quv jarayoniga nisbatan ba’zan ijobjiy, ba’zan esa vaziyatli munosabat shakllanadi. Mazkur o‘quvchilar o‘z kuchlari va layoqatlariga to‘liq ishonmaydilar. Ularga muntazam tarzda nazorat, qo‘llab- quvvatlash va yordam kerak bo‘ladi. Ularning muvaffaqiyatlari o‘qituvchilarini va ota-onalari tomonidan muntazam tarzda e’tirof etilishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati yuqori darajadagi kuchli va barqaror mayllar

bilan tavsiflanadi. Ushbu mayllar o‘quvchilarning ichki qiziqishlarini shaklantiradi va chuqurlashtiradi. Natijada ularda bilish faoliyatiga nisbatan qadriyatli-fikriy munosabat tajribasi tarkib topadi.

Dialogik munosabatlar madaniyati shakllanganligining yuqori darajasi - qadriyatli-fikriy daraja. Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘quvchilar chuqur o‘ylangan harakatlarni amalgaloshirish va hukmlar chiqarishga moyil bo‘ladilar. Ular o‘zlarining sabr-bardoshliliklari, histuyg‘ularni anglashlari, barqaror hissiy holatga egaliklari bilan farqlanadilar. Bunday o‘quvchilar og‘ir, vazmin va xushfe'l bo‘ladilar.

Yuqori darajadagi aqliy rivojlanish turli tushunchalar orasida o‘zaro aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Intellektual jihatdan yuqori darajaga erishgan o‘quvchilar abstaksiyalash, umumlashtirish usullarini osongina o‘zlashtirish bilan bir qatorda, yangi usullar ustida mustaqil ishlash layoqatini ham egallaydilar. Bunday o‘quvchilarda natijalarini bashorat qilish va oldindan payqash sifatlari mavjud bo‘ladi.

Qadriyatli-fikriy munosabatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning o‘zaro aloqalar jarayonidagi mavqelari ularning faol axborot almashinislari bilan izohlanadi. Dialogik munosabatlar jarayoni ishtirokchilari orasida narsa va buyumlarni birgalikda tahlil qilish amalga oshadi. Bunday axborot almashinish sinfdoshlarning bir-birlariga xatti-harakatlarini o‘zgartirish maqsadida ta’sir ko‘rsatishlari ro‘y beradi. Dialogik ta’sir doirasida kuzatuvchanlik suhbatdoshning munosabatini anglashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Safarova R, Yusupova F. va b. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondashuvlar. - T. Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. - 115 b.
2. Safarova R, Yusupova F. va b. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. - T. Fan va texnologiya nashriyoti, 2013. - 142 b.